

## QADIMGI O'ZBEKISTON TANGALARI

*Muhamadiyev M.*

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hodimi*

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif buyursangiz albatta qadimgi tangalarga ko'zingiz tushadi. Dastlabki davrlarda tangalar O'rta Osiyoning faqat Yunon aholisi orasidagina yuritilgan bo'lsa kerak, chunki bu paytda tub aholi hali pul-tovar muomalasi yuritishga ulgurmagani edi deb hisoblaydi, tangashunos olim E.V.Zeymal. Bu jarayon miloddan avvalgi III asr, ya'ni ikki mustaqil Parfiya va Yunon Baqtriya podshohligi paydo bo'lgan davrda boshlangan deb tahmin qilish, har holda haqiqatda xilof bo'lmas kerak. Ammo bu podsholikni birinchisida etakchi rolni Janubiy Turkmanistonda yashovchi kuchmanchi parklar qabilasidan chiqqan odamlar uynasa, ikkinchi o'rinda oliy nasab yunonlar turishgan. Yuz yildan sal ziyod, ya'ni miloddan avvalgi III asrdan to II asrning uchinchi choragigacha hukm surgan Yunon-Baqtriya podshohligi tangalarining aksariyati medal'er (medal yoki tanga quyish yokivarb etish san'ati - tangavarbhonasi) san'atining nodir namunasi deb hisoblanadi. Yunon-Baqtriya podshohligining tanga sistemasi standartga asoslangan edi, tangalar asosan kumush va misdan, ba'zan tillodanvarb etilardi. Ular orasida Evkritning 20 staterli (160g) oltin tangalari, ya'ni antik dunyo davrining eng yirik oltin tangalari mavjud. Bunday tangalardan ikkitasi haqida ma'lumot bor. Biri A.Semzovning gapiga qaraganda, Buhoro amiri hazinasida saqlangan, ikkinchisi Parijda saklanadi. Yunon-Baqtriya kumush tangalari, asosan bir andozada bo'lib o'ng tomonida hukmdor podshohning, tersida esa u o'ziga pir qilib olgan ma'budlarning, masalan Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollon, Dioskurlarning tasviri tushirilgan edi.

Yunon-Baqtriya tangalarida andozaga tushib qolgan tasvirlardan chekinish hollari ham uchraydi. Masalan podsho Evkratid davridavarb etilgan tangalar ichida o'ng tomonida podshohning o'z surati hamda "Ulug' shoh Evkratid" degan yozuvi tersida esa yigit yoki erkak hamda peshonasida tillaqosh taqqan ayolning yon tomonidan olingan surati aks ettirilgan, Suratning tagida "Geliokl va Paodina" dab yozilgan tangalar uchraydi, Aleksandr, Antiol, Dloft va Evtidemlar sharafiga bag'ishlab medal-tangalar bironta ulug' zot, sharaflisi sana, qimmatxilik yoki qaxatxilik, ochlik yillari munosabati bilanvarb etilgan tangalar ham diqqatga sazovor bo'lgan, Bunday medal-tangalar-dan biri - Evtidem sharafiga Antimax tomonidanvarb etilgan tanga Panjakentda, Diodit va Evkratid sharafiga Agafokl tomonidan chiqarilgan uchta tanga Buhorodan topilgan dafina ichidan chiqqan.

Yunon-Baqtriya tangalari texnikaviy ijrosi jihatidan va hususan, podshohlarning siymosini aks ettirishdagi badiiy ifoda usullari jihatidan eng balad saviyadavarb etilgan Ellada tangalaridan ustun turadi, Qadimgi Gresinda Yunon-Baqtriya tangalari Sitsiliyaning denadrahma hamda tetradrahmasi bilan bir qatorda antik davr tangavarb etish ishining eng nodir namunasi hisoblanardi. Ularning fikricha: "Tangavarb qilishishi o'z badiiy konunlari va talablariga esa mustaqil san'atdir." Yunon-Baqtriya tangalarining o'lchov birliklari haqida gapirsak, Masalan, Yunon-Baqtriya Evtidem tangasi eramizdan avvalgi 235-200 yillar. misdan tayyorlangan diametri - 19 mm, vazni - 3,5 gramm.

Bularning orasida skifat, ya'ni bir tomoni kavariq, ikkinchi tomoni botiq, tirandoz tasvirli tangalar alohida o'rinda turadi. Hozirgi paytgacha mis sug'd tangalari dafinalari kamdan kam uchraydi, sug'd tanga sistemasi monometalli ya'ni bir turdagi ma'dan kumrshing ishlatilishiga asoslangan bo'lishi mumkin. Sug'd tangalarining ungida hukmdorning yon tomonidan berilgan surati ters tomonida esa tirandoz, nayza ushlab turgan ma'bud, chopib ketayotgan ot yoki shohli ot boshining surati berilgan. Girkod turdagi sug'd tangalari miloddan avvalgi II eramizning I asrida Sug'd davlatinivabt etgan kuchmanchi kabilalar hukmdorlari tomonidanvarb qilingan bo'lsa kerak. Bu turdagi ilkvarb etilgan tangalarda faqat grek tilida imzo, yozuvlar, keyin yunon-sug'd tilidagi mushtarak yozuvlar va nihoyat birgina sug'd yozuvlari mavjud edi.

Qadimgi zamon tangalarida tanga zarb qilish texnikasi inkirozga yuz tutgani tasodifiy voqea emas. Bu voqea O'rta Osiyo madaniyatining bir qator sohalarida tanglik boshlangan vaqtda tug'ri keladi. Ba'zi bir tadqiqotxilar buni qadimgi ijtimoiy informasiyaning umumiy tanglikka yuz tutganining ifodasi deb hisoblaydi.

Shuning bilan bir qatorda eramizning III-IV asri O'rta Osiyoga tangavarb qilish ishining tarixida, pul muomalasi joriy etilgan hududlar toborra kengayib, tangavarb qilishning yangi markazlari paydo bo'lganligi ham qayd qilinadi. Mahalliy mis tangalar birinchi bo'lib Kesh (Hozirgi Qarshi va Shahrisabz), Choch (Toshkent oblasti) va Buhoroda paydo bo'ladi. Tasviriy jihatdan Kesh tangalari alohida diqqatga sazovordir. Tangalar-ning o'ng tomonida hokimning kuksigacha tushgan rasmi bor. Uning sochlari galati tarzda taralgan: bosh uchidagi tamg'a bilan turmaklangan soch sim - sim pastga silliqlangan. Tanganing ters tomonida esa orqa oyoqlarida turib odam bilan olishayotgan sher tasviri berilgan. Bunday syujet O'rta Osiyodavarb etilgan boshqa tangalarda uchramaydi, ammo u eramizdan oldingi IV asrda Kiliniya kumush tangalari hamda Ahamoniylar davridan boshlab Eronning bir qator san'at obidalariga qayd etilgan.

Eramizdan oldingi II asrda Xorazmda ham tangavarb qilina boshlanadi. Dastlabki Xorazm tangalari Evkratid tetradrahmalariga taqlidanvarb etilgan yirik kumush tangalar bo'lib asil nushalardan farqli o'laroq, yozuvlari hiralashgan, ters tomonida uziga hos belgi tamga borligi bilan ajralib turadi. Keyinchalik o'ng tomonida Evkratid tasviri mahalliy hukmdor surati bilan o'zgartiriladi va hiralashgan Grek yozuvlari bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot beruvchi Xorazm tilidagi yozuvlar, tanganing ters tomonida esa suvoriyning tasviri paydo bo'ladi.

Ba'zi bir tadqiqotxilar Beruniy ma'lumotiga asoslanib tangaga tasvirlangan siymo xorazmshohlar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Siyovush desa, boshkqlar bu tasvirda podsho - tangri berilgan, deydilar, So'ng suvoriy – tangri tasviri tamg'a bilan bir qatorda etti asr mobaynida ya'ni Xorazm tangasivarb qilinishi tugagunga qadar bu joydarda tarqalgan barcha tangalardavarb etilib kelingan. Faqat tasvirning shakl - shamoyili o'zgarib turgan holos.

O'rta Osiyo tangashunosligada uchragan bu ajoyib voqea bir suloladan kelib chiqqan Xorazmshohlarning izdoshligi, qadimiy analarga sodiqligidan dalolat berib turadi. Bu Xorazm podsholari Bravik hamda Siyovush Fanlarining kumush tangalaridir. Ular bundan oldinroqvarb etilgan tangalardan shakl jihati bilan qalinligi bilan, shoh tasviri va yozuvlarining mazmuni bir munchavamonaviyvarb qilinish



usuli bilan ajralib turadi. Suvushfan tangalarining o'ng tomonida chetga qarab turgan, peshonasida yarim oy, o'ziga yarashliq toj kiygan, soqoli olingan o'ta tasirchan tasviri berilgan. Shohning buynida ikki qator marjon boshi uzra tillaqosh tasmalari xilpirab turibdi.

Tangada shoh Siyovush nomi zikr etilgan sug'd yozuvi bo'lib, uning tarjimasi: "Siyovushdek dogndor demakdir, Tanganing ters tomonida Xorazm suzoriylarining an'anaviy tasviri hamda "Siyovush podsho hazratlari" degan Xorazm tangavarb qilish uslubiga hos yozuv bor. Xorazmshohlar tomonidan chiqarilgan sunngi tangalarda arab yozuvlari paydo bo'lib, bu o'z o'rnida Xorazmda arab halifalarining ta'siri kuchayganligi, so'nggi Xorazmshohlardan biri Islom diniga kirganligidan darak beradi.

Xorazmda shoh va suvoriy tasviri tushirilgan an'anaviy tangalarning varb etilishi asrimizning VII asr o'rtalarida tugallangan bo'lsa kerak.

**Eramizning V- VII asrlari ilk o'rta asr davri** O'rta Osiyo tarixida keskin o'zgarishlar ro'y berdi: feodal tuzum mustaxkamlanib, tobora rivojlanib bordi, unga katta bo'lmagan davlat tashkil topdi, bu davlatlar o'z navbatida behisob mayda, ko'cha mustaqil hokimlardan iborat edi. Bu davrga kelib, O'rta Osiyaning turli joylariga kelib Sharqning qudratli davlatlar eftalitlar, (eramizning V asri ikkinchi yarmidan, VI asrning birinchi yarmigacha) Sosoniylar, (eramizning birinchi asri, va VII asrning o'rtalarigacha) turk hoqonligi, (eramizning VI asri ikkinchi yarmidan VIII asr o'rtalarigacha) ta'sirida benihoyat VII asrning birinchi yarmi ohirlaridan boshlab O'rta Osiyo uzil - kesil arab halifaligi (avvali Umaviylar keyin Abbosiylar) tarkibkga kiradi. Ilk O'rta asr davrida O'rta Osiyo xalqlari hayotida talay o'zgarishlar yuz berdi: bu o'zgarishlarning boshlanishi kuchmanchi eroniy hamda xionit, kidarit, eftalit kabi tog'li qabilalar bostirib kirishi, asrning ikkinchi yarmidan boshlab turk qabilalarining kelishi natijasida O'rta Osiyoning bir qator viloyatlari turklashish bilan belgilaniladi.

Moddiy va badiiy madaniyat sohalarida ham ulkan o'zgarishlar yuz bera boshladi. Turgan gapki, tangavarb qilish ishi bu o'zgarishlardan chetga qolgan chekonlar (shtampel) tanga chaqa, metal va shu kabilarni varb qiladigan shtamp, qoliplar paydo bo'la boshlagan. Tangalarni nisbatan yirik o'lkalarning (Sug'd, Xorazim) hukmdorlari, kichik ulus hukmdorlari (Panjikent) hatto shaxarlar (masalan, Buxoro vohasidagi Noykend) varb qilishardi. Siyosiy va an'anaviy aloqalar ta'sirida aksariyat O'rta Osiyo mulki amloklari qudratli qo'shni davlatlarning tangalaridan nusxa olib tangavarb qilar edilar. Masalan, sug'd ixmidlari va bazi bir turk hukmdorlari Xitoy tangalariga o'xshatib dumaloq, o'rtasida to'rt burchak teshigi bor tangalar, Buhoroda esa Sosoniy sulolasida Barahran V tangalariga taqlidan tangalar varb etishadi.

Faqat Xorazm qadimgi an'analarga sodiq qoldi. Eramizning I asrida kalitga tushgan ikonografik: sxema: tanganing o'ngida hukmdor, tersida ot mingan shoh tasviri ilk o'rta asr davrida ham o'zgarmay qoldi. Balki bu Xorazmning siyosiy va iqtisodiy turg'unligi va mutaassibligiga bog'liqdir. Ilk o'rta asr davrida O'rta Osiyoning turli joylarida tangavarblash kumush va misga asoslangan edi, tillodan tangavarb qilinmas edi. Sug'd, Choch, Istravshan, yettisoyda faqat mis chaqalar varb ettilardi. Kumush tangalarga bo'lgan ehtiyoj esa sosoniylarning kumush tangalari bilan qondirilgan bo'lsa kerak. Xorazm, Buhoro, Chagoniyonda mis tangalar bilan bir qatorda kumush tangalar ham varb kilingan. O'rta Osiyoga Vizantiya oltin solidlari

ham ollb kelingan, ammo ular real pul muomalasida bo'lganmi, yo'qmi bu bizga qorong'u. Ammo mazkur tangalar zeb - ziynat sifatida ishlatilgan indifikatsiyalar (Ya'ni o'ngi va tersida bir xil o'yma tasvirli tangalar) yaratilishiga olib keladi. Vizantiya tangalaridan yasalgan indikatsiyalarni, hatto bu tangalarning o'zini ham O'rta Osiyoning qadimgi qishloqlari go'ristonlarida topish mumkin.

Ilk o'rta asr davrida antik davrga nisbatan tanganing ung va terslari anchagina uz gardi. Tasvirlar bo'rtma emas, siyqaroq rasmlar esa oddiy chizila boshlandi.

Yozuvlar va nasabni bildiruvchi tamg'asi bor, ammo hukmdor yoki mabudaning tasvirisiz, shuningdek hech bir yozuvsiz tangalar yuzaga keldi. Bunday hol ilgari sira uchramagandi. O'rta osiyoning bir qator viloyatlari tangalarini ikonografiya nuqtai nazaridan qisqacha tavsiflab utaylik.

**Choch** - Bu viloyatning turli joylaridavarb etilgan tangalar g'oyat xilma-xildir. Kupincha tangalarning o'ngida shik boquvchi yoxud yuzini chetga burib turgan hukmdor yoki shoh va mamlakatning siymolarini ko'rish mumkin. Aksariyat hollarda bu tasvirlar aniq bir shahsning portret belgilaridan holi bo'ladi va umumiydashgan, ba`zan hatto sxematik obraz tarzda ifodalanadi. Tangalarda yirtqich hayvon, yaydoq va tuya tasvirlari ham tez - tez uchrab turadi. Bizning tahminimizcha, bu jonivorlar hukmdor urug'ning homey totemlari bo'lsa kerak. Tangalarining tersi bir xil- o'rtada tamg'a, uning gir atrofida hukmdorning ismi, unvoni hamda mulk noma sug'd yozuvida berilgan.

**Sugd**- Ilk Sugd tangalarining o'ngida silliq sochli ma`budaning tasviri bo'lsada, VII asrning yarmidan sug'd hokimlari - ixmidlar hamda ularga tobe amlokdor to'rt burchak teshikli hech bir tasvirsiz siyka tangalarvarb qila boshlashadi. Tanganing o'ngida nursiz berilgan sug'd yozuvi hukmdorning ismi va unvonini bildiradi. Tanganing tersidan esa har bir hukmdorning o'z sulolasiga hos belgi berilgan. Bunday tangalar ulardagi ismi va unvonlar o'zgartirilib, Yttisoyda turgana nomli turk qabilasi, Buhoro voxasida savdogarlar shaxri bo'lmish Paykent, Shimoliy Tuxariston va Chochdavarb etilardi. Eng so'nggi Sug'd yozuvlari bilan bir qatorda qisqacha arab yozuvlari ham paydo bo'la boshlaydi. Istravshan, Kadimda hozirgi Tajikistonning Leninobod viloyati hamda O'z-bekistonning Jizzax viloyat hududlarida joylashgan bu kichik o'lka hokimlari Eramizning VII asr ikkinchi yarmida va VIII asrning birinchi yarmida o'z mis chaqalarinivarb qilishardi. Bu tangalarning o'ngida Sosoniylar tangalariga taqlidan boshiga qanotli chambar kiygan hokimning tasviri berilgan. Hokim Satagari tangalarida buning o'rniga butparastlarning donishmandlar ramzi bo'lmish fil tasviri berilgan.

Buhoro IV-V asrda varb etilgan Buxoro mis tangalarining o'ngiga toj kiygan hokim boshining nuktalar bilan o'ralgan tasviri, tersida esa Sosoniylarning tangalariga hos otashparastlar mehrobi yoki tamg'a berilgan. Oromiy tilidagi yozuv hukmdorning ismi va unvonini ifodalaydilar masalan Asvor shoxining tangasi,(rasm.) Bundan tashkari, eramizning VI-VII asrlarida hokimiyat boshida turgan Chagoniyon hokimlarining butun bir sulolasi aniqlandi. Chagoniyon viloyatida o'ngida hokim va malika tasviri tushirilgan yupqa mis tangalar hamvarb etilardi Ular Choch va Sug'd tangalariga uhshab ketardiyu ammo tyasvirlarning o'ziga hos hususiyatlari bilan ajralib turardi. Maskur tanga boshqalaridan Baktriya tilidagi kursovli suzlari borligi bilan ajralib turardi, yozuvning ma`nosi hali hamon aniklanmagan. Tahminan shu davrning

o'zida Chagoniyonga ko'shni bulmish termiz shohlarining chog'roq saltanatida 'aroyib shaklli tangalar zarb yotila boshlanadi. Ularning ba'zi birlari o'ta snifat shaklida bo'lib, boshqalari yassiroq, o'ngida qanotli chambar kiygan hukmdor siymosi, tersida tamg'a tasvirli, yozuvlari yo'q tangalar edi. Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan, O'rta Osiyoning g'arbiy - janubida joylashgan Marg'iyona va Shimoliy Hurosonda bu davrda hali tangalar zarb yotilmasdi. Marg'iyonaning bosh shahri Marvda (Hozirgi Bayramali atrofida) Sosoniylar tangalariga taqlidan zarb etilgan tangalar chiqarishardi.

#### Adabiyotlar:

1. Elizavetin. G. "Pulnoma" Toshkent 1979 yil
2. Pidaev. Sh. "Tangalar davr ko'zgusi" Toshkent 1984yil
3. To'xtaev. I. "Tangalar tilga kirganda" Toshkent 1989yil
4. To'xtiev. I. "Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati" Toshkent 2006 yil
5. Arhiv.uz

